

MIRZO ULUG'BEK SHARQ UYG'ONISH DAVRINING YORQIN SIYMOSI SIFATIDA

G'ulomova Zahro Davlatjon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti.

Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 2 bosqich talabasi.

(947463353).

zahrogulomova40@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada buyuk Temuriy shahzoda Mirzo Ulug'bekning yoshlik yillari, oilasi, ilm-fanga qiziqishi, hokimyat tepasiga kelishi, davlat boshqaruvi haqida, davlat boshqaruvida qanday usullardan foydalangani haqida ma'lumotlar qayd etilgan. Mirzo Ulug'bekning ustozlari, u bilan birga ijod qilgan G'iyosiddin Jamshid Koshiy va boshqa buyuk shaxslar ismlari tilga olinadi. Ulug'bek tomonidan Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda qurilgan madrasalar haqida, "Registon", uning qurilish tarixi, uning ichida joylashgan asbob-uskunalar haqida ham aniq fikrlar aytilgan. Ayniqsa, davlat boshqaruvidagi oqilona siyosatiga alohida to'xtalib o'tilgan.*

TAYANCH SO'ZLAR: *Mirzo Ulug'bek, bobosi Amir temur, otasi Shohruh Mirzo, onasi Gavharshod Begim, Gi'yosiddin Jamshid Koshiy, Mavlona Ahmad, Qozizoda Rumi, Buxoro, Samarqand, Registon, Zayniddin Vosifiy, Movaunnahr, Xuroson*

АННОТАЦИЯ: *В статье содержатся сведения о юности великого тимуридского принца Мирзо Улугбека, его семье, интересе к науке, приходе к власти, сведения о государственном управлении и методах, которые он использовал в этом деле. Упоминаются имена учителей Мирзо Улугбека, Гиёсиддина Джамшида Коши, работавших вместе с ним, и других выдающихся личностей. Улугбек также высказывает чёткие мысли о построенных им в Бухаре, Самарканде и Гиждуване медресе «Регистан», истории их строительства и находившемся в нём оборудовании. В частности, отдельно рассматривается его рациональная политика в области государственного управления.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Мирзо Улугбек, дедушка Амир Темур, отец Шахрух Мирзо, мать Гавхаршод Бегим, Гиёсиддин Джамшид Коши, Мауляна Ахмад, Газизода Руми, Бухара, Самарканд, Регистан, Зайниддин Васифи, Мовауннахр, Хорасан.*

ANNOTATION: *This article contains information about the youth of the great Timurid prince Mirzo Ulugbek, his family, his interest in science, his rise to power, information about state administration, and the methods he used in state administration. The names of Mirzo Ulugbek's teachers, Ghiyosiddin Jamshid Koshiy, who worked with him, and other great figures are mentioned. Ulugbek also gives clear thoughts about the madrasas built by him in Bukhara, Samarkand, and Gijduvan, the "Registan", the history of its construction, and the equipment located in it. In particular, his rational policy in state administration is discussed separately.*

KEYWORDS: *Mirzo Ulugbek, grandfather Amir Temur, father Shahrukh Mirzo, mother Gavharshod Begim, Ghiyosiddin Jamshid Koshi, Mawlana Ahmad, Qazizoda Rumi, Bukhara, Samarkand, Registan, Zayniddin Vasifi, Movaunnahr, Khurasan.*

Sharq uygʻonish davrining yirik allomasi, buyuk davlat arbobi, Temuriylar sulolasining yirik vakili, astranom va matematik Mirzo Ulugʻbek oʻz sulolasining maʼrifatparvar vakili, oʻsha davrda ilm-fan taraqqiyotiga hissa qoʻshgan ulugʻ inson sifatida nom qoldirdi. Mirzo Ulugʻbek — oʻzbek va jahon tarixida buyuk astronom, matematik hamda maʼrifatparvar hukmdor sifatida alohida oʻrin egallaydi. U ilm-fan rivojiga ulkan hissa qoʻshib, ayniqsa astronomiya sohasida yuksak natijalarga erishgan. Samarqandda qurdirgan rasadxonasi va tashkil etgan ilmiy maktabi tufayli Sharq uygʻonish davri yanada ravnaq topgan. Mirzo Ulugʻbek nafaqat davlat arbobi, balki ilmni qadrlagan alloma sifatida ham tarixda nom qoldirgan. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan va yoshlarni bilim olishga undab kelmoqda. Uning toʻliq ismi Muhammad Taragʻay Shohrux oʻgʻli boʻlib, Ulugʻbek unga bobosi Amir Temur tomonidan berilgan taxallusdir. Mirzo Ulugʻbek 1394-yil 22-martda Amir Temur saltanatining qishki chorbogʻi, hozirgi Eron hududidagi Sultoniya shahrida tavallud topgan. Bu paytda bobosi Amir Temur Iroqdagi Mordin qalʼasini qamal qiladi. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida yozilishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib, Ulugʻbekning tugʻilgani va munajimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor boʻlishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohiqiron xursandligidan Mordin qalʼasini qamalini toʻxtatib, uning halqiga yuklangan toʻlovni bekor qiladi. Otasi Amir Temurning toʻrtinchi oʻgʻli Shohruh Mirzo. Onasi Gʻiyosiddin Tarxon qizi Gavharshod Begim.

Amir Temur suyukli nabirasi Muhammad Taragʻayning goʻdakligidan bilimdon ustozlar qoʻlida tarbiyalanishiga alohida eʼtibor bergan. U oʻn bir yoshiga qadar buvisi Saroymulxonim tarbiyasida boʻlib, mashhur olimlardan qayd etilgan. Mirzo Ulugʻbek bobosining saroyidagi yirik allomalar jumladan, sayyoralarning ikki yillik harakat jadvallarini tuzgan Mavlona Ahmad va Qozizoda Rumi kabi yetuk astranom va matematik olimlar bilan birgalikda, ular yashagan muhitda yoshlik yillaridan ulgʻaydi. Uning ustozlari ham oʻta bilimli va qattiqqoʻl edi. Yosh temuriy shahzodaning bolaligi, asosan, Amir Temur saltanatining gʻarbiy chegarasida, hozirgi Eron hududining Sultoniya shahrida oʻtdi. U faqat ilm olish bilan cheklanib qolmasdan, yoshlik yillaridan chavandozlik, qilichbozlik, kamon otish, suzish kabi jismoniy mashqlar bilan shugʻullangan. Har kuni qatʼiy kundalik tartibga oʻrgatilgan, diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy fanlarni ham chuqur oʻzlashtirgan. Uning xotirasi kuchli, zehni oʻtkir boʻlgan, irodasi chiniquqan. Arab, fors, turk, moʻgʻul, xitoy tillarini mukammal oʻrgangan. Quroni Karimni yetti xil qiroatda yod olgan. Mirzo Ulugʻbek kuchli tahliliy tafakkur sohibi boʻlib, murakkab matematik amallarni dilida bajara olgan. “Ulugʻbek astronomik maktabi vakillaridan biri – Gʻiyosiddin Jamshid Koshiyning hayrat bilan yozishicha, kunlarning birida Ulugʻbek ot ustida quyoshning balandligini vaqt birligida

o'lchab, tushayotgan nurning tekislikka nisbatan og'ish burchagini trigonometrik usulda yoddan hisoblab chiqqan.

Amir Temur vafotidan so'ng 1409-yilda to'rtinchi o'g'li, Mirzo Ulug'bekning otasi Shohrux Mirzo Temuriylar davlatining oliy hukmdori sifatida e'tirof etiladi. U bu paytga qadar Xuroson hokimi vazifasida faoliyat yuritgan. Shohrux Mirzo Movarounnahrni idora etishni, Turkiston viloyati bilan birga Ulug'bekka topshirdi. O'smir yoshdagi Ulug'bek bu hududlarni dastlab, Shohmalik yordamida boshqargan bo'lsa, 19 yoshidan boshlab mustaqil idora qila boshladi³⁹. Ayni paytda Ulug'bek faqat davlat ishlari bilan shug'ullanib qolmasdan, ilm-fanni ham rivojlantirdi, qimmatbaho yozma yodgorliklarni qayta ko'chirib, xalq orasida targ'ib qildi, madrasa, maqbara, masjid va xonaqahlar qurdirgan. Mirzo Ulug'bek 1417-1420-yillar davomida Samarqandda madrasa qurdirib, Registonda barpo etilgan birinchi ansamblga aylanadi. Ushbu madrasaga Ulug'bek islom olamining ko'plab astranom va matematiklarini taklif qiladi. "Uning Buxoro shahrida qurilgan madrasasi peshtoqiga "Ilmga intilish har bir musulmon uchun farzdir" yozuvi saqlanib qolgan⁴⁰". Samarqand shahrida Ulug'bek davrida qurilgan XV asr me'morchiligining nodir namunalaridan biri Ulug'bek rasadxonasidir. Bu inshoot Ulug'bek farmoyishi bilan 1428-1429-yillar davomida Ko'hak tepaligida bunyod etilgan. Ulug'bek bu madrasani shunchaki qurdirmagan, balki bu ishga hayotida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan tadbirdek yondoshgan. Tarixchi Zayniddin Vosifiyning so'zlariga ko'ra, Ulug'bek madrasa qurilishining har bir bosqichini shaxsan nazorat qilib borgan, hatto, bino bitgach, kim mudirlik qilishi, kimlar dars berishi, mudarrislar qanday bilim va malaka talablariga javob berishi lozimligini aniq belgilab bergan. Mirzo Ulug'bek rasadxonasi haqida "Boburnoma" asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, balandligi 30,4 metrdan iborat 3 qavatli qilib qurilgan⁴¹. Unda o'ndan ortiq turli astranomik qurilma va asboblari mavjud bo'lgan. Ulardan eng asosiysi radiusi 40.2 metrli qo'shaloq yoydan iborat kvadrant yoki sekstant hisoblanadi. Bu kvadrantning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimol tomonda yer sathidan 30 metrchada balandda joylashgan hisoblanadi. Asbob aylanasi bir gradus yoy 701,85mm. va bir minut yoy 11,53 mm. ga to'g'ri keladi.

Rasadxona o'rta asrlarda asbob uskunasi jihatdan ham beqiyos bo'lgan. Asbob astronomiyaning asosiy doimiyligi ekvator va ekliptika orasidagi burchakni o'lchash, yillik pretsessiya doimiysini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astranomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergan. Rasadxonada kichik o'lchamli asboblari: armillyar sfera, 2,4 va 7 xalqadan iborat o'lchov asboblari, triangula, quyosh hamda yulduz soatlari, usturlob va boshqalar bo'lgan. Bu ilmiy uskunalar yordamida Quyosh, Oy, sayyoralar va boshqa alohida yulduzlar kiritilgan.

Rasadxonada yana turlicha asboblari ham mavjud bo'lgan. Jumladan:

³⁹ Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. - Тошкент. Чўлпон, 1994. 78-бет.

⁴⁰ Амир Темур ва Улугбек замондошлари хотирасида. - Тошкент. Ўқитувчи. 1996. 45-бет.

⁴¹ Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. Иккинчи нашр. - Тошкент: Юлдузча, 1990. - 368 б.

1. Zat-al-halak-armillali sfera (xalqa), osmon sferasidagi doiralarni tasvirlovchi bir nechta xalqalardan iborat, xalqalar yordamida planetalarni kuzatish mumkin.

2. Zat-al-shubatayn – trikvetr (uchburchakli), ikki tarmoqdan iborat qadimiy ayronomik asbob.

3. Zat-as-suk-batayni – dipotr.

4. Shamila – astrolyabiya va kvadrat o`rniga ishlatadigan universal asbob namunasi.

5. Ruhama – marmardan yasalgan lavh – Quyosh soati.

6. Miqyos (gnomon)-o`lchaydigan asbob.

7. Kura – falakiya – osmon globusi.

Rasadxonaning qurilishi va osmonni kuzatish uchun mukammal asbob-uskunalar bilan jihozlanishi Mirzo Ulug`bek va uning ilmiy maktabi namoyondalari bafaqat falakiyot ilmida, balki murakkab astronomik o`lchov hisoblash jihozlarini ixtiro qilishda ham tengsiz bilimga ega bo`lishganini ko`rsatadi.

Mirzo Ulug`bekning uzoq yillik hukmronligi davrida mamlakatda ommaviy norozilik harakatlari kuzatilmagani uning adolatli va mohir davlat arbobi bo`lganidan dalolat beradi. 1428-1429-yillar davomida u pul islohoti o`tqazib, qiymati baland yangi mis tangalarni muomalaga kiritdi. U amalga oshirgan soliq islohoti natijasida yer solig`i miqdori kamaytirilib, savdo va hunarmandchilik mahsulotlaridan olinadigan “tamg`a” solig`i hajmi bir qadar oshirildi. Mashhur shoir va adib Zayniddin Mahmud Vosifiyning (1485-1566)ning yozishicha, Mirzo Ulug`bek haftaning bir kunida fuqorolarni shaxsiy iltimoslari bo`yicha qabul qilib, ularning muommolarini qabul qilgan. Aynan shunday kunlarning birida Ulug`bek Mirzoning huzuriga bir odam kelib arz qildi. U aytdiki “Podshohim, boshimga mushkul bir ish tushdi va ajib voqea sodir bo`ldiki, uni yechishga mening aqlim va xatto boshqa barcha oqillarning aqli bovar qilmaydi” - bu voqea quyidagicha: “Men asli iroqlik bo`laman. Xurosonlik savdogarlarning karvoniga qo`shilib, Samarqandga borayotgan edim, karvonimiz Jayhun⁴² daryosining bo`yiga kelib tushgandan keyin, men o`zimni xilvatga oldim va egnimdagi ust-boshimni yechdim. Bir parcha qimmatbaho lal bor edi, uni laxtak charmga o`rab, bilagimga bog`lab oldi. So`ng daryoga tushdim. Undan chiqqanimdan keyin bir bo`lak lalni topa olmay qoldim. Karvon ahlining birortasidan uni surishtirish va taftish qilishga nomus qildim”⁴³. Shunda podshoh aytdiki: “Bir yil sabr qilishing kerak, moling topilsa, murodinga yetasan, yo`qsa uning qiymati qancha bo`lsa mendan olasan”. Keyin u odam podshohga tiz cho`kib qulluq qildi va uning huzuridan chiqdi. Podshoh xazratlari devon<sup>44</sup> boshlig`ini chaqirtiradi va barcha viloyatlardan soliq to`lashi zarur bo`lgan odamlarning ro`yhatini nastaliq<sup>45</sup> xati bilan yozib kelishini buyuradi. Podshoh ro`yhatni tekshirib chiqadi va oradan bir yil vaqt o`tgach huddi shunday ro`yxat tuzishni buyuradi. So`ng bu ikki ro`yhatni bir-biriga taqqoslaydi va ko`radiki Qorako`llik bir odam o`tgan yili 50 tanga xiroj to`lagan ekan, buy il esa 500 tangaga yetibdi. Shundan so`ng podsho bu odamni hech kimga

⁴² Jayhun – Amudaryoning o`rta asrlardagi nomi.

⁴³ Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида / Б.Ахмедов таҳрири остида. - Тошкент. Ўқитувчи. 1996. 56-бет.

⁴⁴ Devon – hukumatning oliy idorasi, Bu yerda bosh moliya idorasi nazarda tutiladi.

⁴⁵ Nastaliq – o`rta asrlarda mashhur bo`lgan xat (yozuv) turlaridan biri.

bildirmay olib kelishini soqchilarga buyuradi. U odam kelganidan so'ng podsho undan so'raydi: "bu tafovutning boisi nima? Shunchalar boyib ketganing va taraqqiy qilganingga nima sabab bo'ldi? Boylik topib oldingmi yoki biror kimsaning uyini urdingmi, yoki kattaroq boylik senga meros qoldimi? Yo bo'lmasa tangrining karami bilan shu qadar mol dunyoga ega bo'lib qoldingmi? Rostini so'yla!..."⁴⁶. Shunda u javob qildi: "Men oddiy bir to'quvchi odamman. Asli qorako'llikman. Bir kuni o'z yumushim bilan mashg'ul edim, do'konimning yonida bir tup daraxt bor edi. Qarasam o'sha daraxtning ustida, bir hakka bir parcha narsani tishlagan holda o'ltirgan ekan. To'satdan o'sha narsa uning og'zidan tushib ketdi, hakka esa tepaga uchib ketdi. O'rnimdan turdim, uni qo'limga oldim. U bir parcha charm ekan, charmni yirtdim. Ichidan bir bo'lak lal topib oldimki, uning yorug' nurlaridan oftob hayratda qolardi, rashkni orttiruvchi shu'lasidan yoqut dilbarlar labidek xijoalat chekib tuban bo'lardi. Lalni tangrining marhamati deb o'yladim va uning zo'r inomi deb bildim. Shu onda Samarqanda jo'nadim va uni savdogarning yoniga olib bordim, chunki "zar qadrini – zargar, javhar qadrini savdogar biladi. Savdogar mendan lalni qayerdan olganimni so'radi. Men javob qildim: Sen buni kavlashtirib nima qilasan, xaridor bo'lsang ol, bo'lmasa, qaytarib ber "-dedim. So'ng savdolashib bu lalni bir ming besh yuz tangaga sotdim va bozorga kirib, bir g'ulom, bitta kanizak, uy va zebu-ziynat mollari, bir ot va egar jabduq sotib oldim. Kimki mendan bu voqeani so'rasa, dedimki "Samarqandda bir qo'li ochiq qarindoshim bo'lib, mendan boshqa merosxo'r yo'q edi. U vafot qilibdi va bularning hammasi undan menga meros qolibdi"⁴⁷. Bu voqeadan so'ng Ulug'bek hazratlari bu lalni topishni va uni egasiga qaytarishni buyurdilar. O'zining dono fikrlari bilan, qurgan buyuk imoratlari bilan tarixda o'xmas iz qoldirgan Mirzo Ulug'bek 1449 – yil 27 – oktabrda Samarqand shahrida vafot etdi.

Xulosa qilib aytganda, tarixda Mirzo Ulug'bek kabi yuksak iste'dod va salohiyatga ega hukmdorlar kamdan-kam o'tgan. Ularga Alloh tomonidan berilgan umr ham qisqagina. Ana shu qisqa vaqt ichida ham shunday ulug' insonlar o'zlaridan ulug' nom qoldira olishyapti, biz yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish uchun harakat qilishyapti. Mirzo Ulug'bek bobomiz ham atiga 55 yil umr ko'rgan bo'lsa-da, ular qoldirgan ilmiy merosdan bugungi dunyo ham foydalanmoqda. Biz, bugungi avlodlar buyuk bobomizning betakror ijod mahsuli bilan faxrlanmasdan, balki ilm o'rganib, yuksak intellektual cho'qqilarga intilishni maqsad qilishimiz zarur. Shundagina xalqimiz, vatanimiz shon-shavkati ulug' bobokalonlarimiz davridagidek yana barq uradi. Mirzo Ulug'bek singari buyuk insonlar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида / Б.Ахмедов таҳрири остида. - Тошкент. Ўқитувчи. 1996.
2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. Иккинчи нашр. – Тошкент: Юлдузча, 1990.

⁴⁶ Восифи Зайниддин. Бадое ул-вакое / Перевод с персид. А.Н.Болдиров. - Москва, 1961, -С. 123.

⁴⁷ Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. - Тошкент. Ўқитувчи. 1996. - С. 34.

3. Восифи Зайниддин. Бадое ул-вакое / Перевод с персид. А.Н.Болдиров. - Москва, 1961.
4. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. - Тошкент. Чўлпон, 1994.